



MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
NUKUS FILIALI



«XALQ XO'JALIGI SOHASIDA ILG'OR TEXNOLOGIYALAR TADBIQI MUAMMOLARI»

MAVZUSIDAGI HUDUDIY ILMIY-TEXNIK KONFERENSIYASI

MA'RUZALAR TO'PLAMI



: Chorvachilikda ilg'or texnologiyalar
va innovatsion yechimlar



: Dasturlash, kiber xavfsizlik va qishloq
xo'jaligi fan sohalari integratsiyasi



: Ta'lim va ishlab chiqarishda innovatsiyalar,
tahlil va prognozlash vositalari



27-dekabr 2023 yil

Konferensiya IL-392103072-
“Chorvachilik komplekslarini
elektron boshqarishning mobil
ilovasini yaratish” innovatsion
loyiha doirasida olib borilgan
ilmiy-amaliy tadqiqotlar
natijalariga bagishlangan



Nukus sh. A.Dosnazarov k. 74 uy



(61) 222-49-10



www.uzplf.uz



www.tatunf.uz

B.S.Raximov, A.D.Xo‘janiyazov, Z.B.Saidova Tibbiy texnologiyalarning samaradorligini oshirish usullar va diagnostika vositalari	238
B.S.Raximov, A.D.Xo‘janiyazov, Z.B.Saidova Tibbiyotda signallariga raqamli ishlov berish usullari	242
Б.А.Файзуллаев, А.Я.Байназаров, Г.Б.Кипшакбаева Классификация неопределенности по различными характеристиками	245
Sh.Rustamov, D.Jo‘rayeva Ilmiy texnik axborotlar foydalanuvchilari va foydalanish maqsadlari tahlili	247
Z.N.Ibragimova Bo‘lajak pedagoglarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish	250
A.A.Rashidov Bo`lajak o`qituvchilarni dars mashg`ulotlarini tashkillashtirishda loyihalash kompetentligini rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari	253
D.X.Axmadjonova, J.X.Homidjonov, J.R.Homidjonov Matematika o‘qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari va cheklowlari	255
F.F.Ollamberganov Videokuzatuv kameralardagi harakatlanuvchi obyektlarni aniqlash usullari	258
A.Kalbaev Maǵlıwmatlardıń intelektual analizi tiykarında medicinalıq diagnoz qoyıw mäseleleri	261
M.H.Xoliqnazarov, N.Y.Mo‘sajonova Она тили фанида ёзма нутқни ривожлантиришда акт воситаларидан фойдаланиш	266
N.Sabitova Tibbiy tasvirlarni tahlil qilishda su’niy intellektning qo’llanishi	269
L.Raximova, N.G’anijonova Dasturiy ta’minot loyihibarini boshqarish usul va vositalari.	273
O.A.Asrorov Talabalarga fanlarni o’qitishda axborot xavfsizligini ta’minalash.	276
A.Qahramonov, U.Sharopov Ta’lim jarayonida srim prognozlash metodikasidan foydalanish	279
A.A.Sa’dullayev axborot xavfsizligining ta’limdagи o’rni	282
A.A.Sa’dullayev Virtual texnologiyalarni ta’lim jarayonida tadbiq etish	284
J.T.Sunatov Ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni joriy etish samaradorligi	287
J.T.Sunatov, R.T.Rustamov Ta’limda innovatsion texnologiyalar	291
N.M.Ustamova Bo‘lajak pedagoglarning kreativ sifatlarini rivojlantirish	293
N.O’Sulaymonova Pedagogik oliy ta’lim muassasalari talabalarining pedagogik kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	295
O.A.Sattarova Kichik energiyali ionlarning qattiq jism sirtidan sochilish jarayonini o’rganish	299
B.J.Mamanazarov, M.O. Meyliqulov Virtual o‘quv muhitida talabalarning o’zlashtirish natijadorligi	303
Z.A.Abdukarimov Computer linguistics in development stages	307
РЕФЕРАТИВ ХИСОБОТ	312

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sa'dullayev A. A. o'g'li. (2023). Types of computer networks and their analysis. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 13–16.
2. Sa'dullayev A. A. o'g'li. (2023). An effective way to detect computer network anomalies. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 401–404.
3. Sa'dullayev A.A.(2023). Tarmoq topologiyasi turlari va ularning tahlili. "Fan, innovatsion texnika va texnologiyalarning rivojlanish istiqbollari" respublika ilmiy – amaliy anjumani.
4. Sa'dullayev A.A. (2023). Methods and algorithms of protection against information attacks in digital transformation. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(22), 104–119.

ISHLAB CHIQARISHGA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH SAMARADORLIGI

J.T.Sunatov (Iqtisodiyot va pedagogika universiteti)

Annotatsiya: Mazkur maqolada ishlab chiqarish jarayonlariga innovatsion texnologiyalardan foydalanish, uning foydali jihatlari, yaxshi tomonlari haqida ma'lumot keltirilgan. Eng asosiysi ishlab chiqarishda innovatsion texnologiyani joriy etishning samaradorligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ishlab chiqarish, texnologiya, innovatsion texnologiya, energiya, Urofloumetr UFM-01, Polimerlar kimyosi.

Mavzuning dolzarbliji. Ishlab chiqarish — jamiyatning yashashi va taraqqiy etishi uchun zarur bo'lgan moddiy boyliklar (turli iqtisodiy mahsulotlar)ni yaratish jarayoni; ishlab chiqarish omillarini iste'mol va investitsiyalar uchun mo'ljalangan tovarlar va xizmatlarga aylantirish. Ishlab chiqarish inson hayotining tabiiy sharoiti va boshqa faoliyat turlarining moddiy asosidan iborat. Kishilik jamiyatni taraqqiyotining hamma bosqichlarida ishlab chiqarish zarur. Uning mazmunini mehnat jarayoni belgilaydi. Ishlab chiqarish jarayoni 3 element — mehnat, mehnat ashyolari va mehnat vositalari bo'li-shini taqozo etadi. Ijtimoiy ishlab chiqarish ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarish va iste'mol buyumlari ishlab chiqarishdan tashkil topadi. Bu bo'limlarning har biri ko'plab xo'jalik tarmoqlaridan iborat bo'lib, ularda turli Ishlab chiqarish vositalari va iste'mol buyumlari yaratiladi. Birinchi bo'limning ikkinchi bo'limga nisbatan ustunligi kengaytirilgan takror ishlab chiqarish iqtisodiy qonunining ifodasidir. Ishlab chiqarish faqat mahsulot ishlab chiqarishdan iborat bo'lmay, balki taqsimot, ayriboshlash va iste'molni o'z ichiga oladi. Ishlab chiqarishning rivojlanishi, avvalo, ishlab chiqarish qurollarining o'zgarishi va mukammallashishidan boshlanadi. Ishlab chiqarishning rivojlanishi

jamiyat hamma a'zolarining farovonligini muntazam oshira borish va har tomonlama rivojlantirishga imkon beradi. Ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni joriy etish muhim hisoblanadi [4].

Ilmiy izlanishlar. Innovatsion texnologiyalarga asoslangan, energiya tejamkor, chiqindisiz, ekologik xavfsiz ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish jahon bozoriga raqobatbardosh mahsulot yetkazib berishning asosi sanaladi.

Ishlab chiqarishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish jarayoni bo'yicha bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda, yangidan-yangi loyiham ishlab chiqilib amaliyotga tadbiq etilmoqda.

Ishlab chiqarishning ko'plab turlari va bosqichlari mavjud. Xususan, tibbiyot dorilarini ishlab chiqarish, temir ishlab chiqarish, ko'mir ishlab chiqarish, ruda ishlab chiqarish, neft-gaz ishlab chiqarish va hokazolar.

Hozirgi vaqtida innovatsiyalar iqtisodiyotni rivojlantirishning eng xarakterli xususiyatlaridan biriga aylanib bormoqda. Yaqinda bu nom ekzotik, noma'lum va hatto professionallar orasida ham unchalik aniq bo'lmagan narsani eslatardi, ammo endi innovatsiyaning o'zi ham, uning tushunchalari ham dunyoni tezda zabit etmoqda. Innovatsion jarayonda jiddiy rol o'ynaydigan va innovatsiyalarni korxonalar uchun strategik resursga aylantiradigan xalqaro kapital bozori kengayib bormoqda, bu borada unga yangi moliyaviy tuzilmalar unga yordam bermoqda. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, innovatsiyalarga ko'pincha odamlarning bevosita salbiy munosabati va pozitsiyasi to'sqinlik qiladi. Biroq, O'zbekistonda paradoksal vaziyat rivojlanmoqda, ya'ni butun jamiyat innovatsion jarayonlarga ijobjiy munosabat va qo'llab-quvvatlashni bildirayapti [2].

Innovatsion faoliyatning shakllanishi va uning darajasiga korxona ko'لامи sezilarli ta'sir o'tkazadi. Nisbatan yirikroq korxonalarda ilmiy tadqikot ishlanmalar, innovatsiyalarni amalga oshirish bilan shug'ullanuvchi bo'limlarni yaratish imkoniyati ko'proq. Statistik hisob kitoblarga qaraganda, sanoat ishlab chiqarish tashkilotlarning asosiy ulushini xodimlari soni juda ko'p bo'lgan korxonalar guruhi tashkil etadi. Kam ishchilar soniga ega bo'lgan korxonalar guruhlarining innovatsiyalarning texnologik amalga oshirilishidagi ulushi sezilarli darajada past. Quyida Qashqadaryo viloyatidagi mavjud sanoat korxonalarining korxona ko'lamni va bo'ysunuv darajasi bo'yicha ma'lumotlar tahlilini keltiramiz (1-jadval) [1].


Tadqiqot natijalari. O'zbekistonda ishlab chiqarish chiqindilaridan tibbiyot uchun magniy sulfat ishlab chiqarish texnologiyasi yaratildi va ro'yxatdan o'tkazildi.

Fanlar akademiyasi boshqarma boshlig'i Feruza Karimova ilmiy tashkilotlarning yangi ishlanma va texnologiyalarni yaratish hamda joriy etish bo'yicha amalga oshirgan ishlari haqida ma'lumot berdi.

Ma'lum qilinishicha, konstruktorlik byurosi va tajribaviy ishlab chiqarish ilmiy texnik markazi "Urofloumetr UFM-01" tibbiy uskunani ishlab chiqardi. Bu uskuna uroflovometr bemorlarda urodinamikani o'lchash parametrlari uchun mo'ljallangan.

Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutida Dermatologiya klinik amaliyotida qo'llash uchun lazer texnologiyalari va UB-yorug'lik manbalari asosidagi fototerapevtik qurilmaning yangi avlodni ishlab chiqildi. Mazkur fototerapevtik qurilma Respublika teri-tanosil klinik kasalxonasida va "Dermatolog Saidkosim Arifov" xususiy klinikasida vitiliga va psoriaz kassaliklarini ayrim shakllarini davolashda qo'llanildi.

№	Hudud nomi	Jami sanoat korxonalar soni	Shundan			Respublika	Bo'y sunuv bo'yicha					
			Yirik sanoat korxonalar	Kichik sanoat korxonalar	Mikrofirma		shundan		Hududiy	shundan		
							yirik	kichik		yirik	kichik	
	Viloyat bo'yicha	4 185	45	97	4 043	102	33	69	4 083	12	4 071	
1	G'uzor	214	3	6	205	6	2	4	214	1	213	
2	Dehqonobod	85	1		84	1	1		84		84	
3	Qamashi	221	2	5	214	8	1	7	213	1	212	
4	Qarshi	300	2	5	293	3	2	1	297		297	
5	Koson	222	5	7	210	9	3	6	213	2	211	
6	Kitob	484	1	11	473	4		4	480	1	479	
7	Mirishkor	103	3	1	109	2	2		101	1	100	
8	Muborak	100	4	3	93	5	3	2	95	1	94	
9	Nishon	152	3	1	148	4	2	2	148	1	147	
10	Kasbi	182	1	3	178	2	1	1	180		180	
11	Chiroqchi	338	1	5	332	7	1	6	331		331	
12	Shahrisabz	225	2	6	217	5	1	4	220	1	219	
13	Yakkabog'	377	2	6	369	10	2	8	367		367	
14	Qarshi sh.	832	14	31	787	31	11	20	801	3	798	
15	Shahrisabz sh	350	1	7	342	5	1	4	345		345	



1-rasm. Dori vositalari.



2-rasm. Magniy sulfat dori vositasi

Import o‘rnini bosish yo‘nalishida Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti tomonidan yuqori darajada tozalangan karboksimetilsellyuloza texnologiyasi ishlab chiqildi va yuqori darajada tozalangan KMS yangi markasi yaratildi. Mahsulot ishlab chiqarilishi “Promxim Impex” mas’uliyati cheklangan jamiyat korxonasi bazasida amaliyotga joriy etildi va dastlabki tajriba sinov partiyalari ishlab chiqarildi. Ishlab chiqarilgan mahsulot oziq-ovqat, farmasevtika va boshqa sohalarda qo‘llanilishga ruxsat etildi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ishlab chiqarishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish hozirgi kun talabidir. Chunki axborot texnologiyalari rivojlangan davrda innovatsion texnologiyalardan foydalanish ishlab chiqarishdagi ish jarayonini anchayin tezlashtiradi, ish samaradorligini va sifatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ulug‘bek Shokirovich Shukurov. Sanoat korxonalari innovatsion faoliyatiga ta’sir qiluvchi omillar va ularning mintaqasi iqtisodiyotiga ta’siri. scientific progress volume 2 | ISSUE 5 | 2021 ISSN: 2181-1601
2. Djalilova Nigora Mavlonovna. Iqtisodiyotni rivojlantirishda innovatsiyalarning roli. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali. 1/2022, yanvarfevral (№ 00057)
3. R. Ravshanov. Sanoat ishlab chiqarish texnologiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan 5340100-«Iqtisodiyot» va 5340200-«Menejment» yo‘nalishlari talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan. Toshkent-2009. 192bet.
4. <https://fayllar.org/mavzu-ishlab-chiqarishga-innovatsion-texnologiyalarni-joriy-et.html>

TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR

J.T.Sunatov (*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti*)

R.T.Rustamov (*SamDChTI Sharq tillar fakulteti*)

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'limga innovatsion texnologiyalarning ahamiyati, ularning ta'lim jarayoniga joriy qilish ishlari hamda bu ishlarning natijasi to'g'risida so'z boradi. Innovatsion texnologiyalardan foydalanish ta'lim tizimida ishlaydigan o'qituvchilarning ishini yengillashtirishi, elektron o'quv shakliga o'tilishi to'g'risida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: texnologiya, innovatsion texnologiya, tizim, kundalik.com, hemis, e-maktab, moodle.

Mavzuning dolzarblii. Inson dunyoga kelibdiki, tashqi muhitdan, tashqi olamdan doimo nimadir bilish, nimadir o'rganish harakatida bo'ladi. Chaqaloqlik paytida qanday ovqat yeyish kerakligini, 2-3 yoshga to'lganda qanday yurish va yugurishni o'rganadi. Yosh qanchalik katta bo'lib boraverGANI sari o'rgangan narsalari inson uchun kam ekanligini biladi, natijada yanada ko'proq narsa o'rganishga harakat qiladi. Odamzot uchun eng asosiy va muhim bilimlarni beradigan joy — ta'lim muassasalari hisoblanadi. Ta'lim muassasalarida kelajakda kerak bo'ladigan asosiy bilimlarni oladi. Bunday bilimlar beruvchi dastlabki joy maktablardir. Maktabdan keyin beriladigan bilimlar esa boshqa ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi. Bunday ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni qanday olib borilmoqda, ta'lim sifatini yaxshilash maqsadida innovatsion texnologiyalardan qay darajada foydalanilmoqda? Shular haqida fikr yuritish lozimdir.

Ilmiy izlanishlar. Davlatning rivojlanishida va siyosiy ustuvor yo'naliislarning mustahkamligini ta'minlashda xalq ta'limining o'rni va ma'suliyati asosiy ustundir. Siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy yoki boshqa sohalarda rivojlangan davlatlar qatoriga kirish uchun eng asosiy vosita va manba bu - bilim hisoblanadi. Bilim esa asosan maktablarda, ta'lim muassasalarida qolaversa, oilada ham shakllantiriladi va mustahkamlanadi. Maktab - biror-bir sohada faoliyat yurituvchi yuqori malakali mutaxassisni tayyorlashga zamin yaratadi. Bilimli yosh avlodni o'qitishda umumta'lim maktablari holatining zamon talablariga javob bera olishi, maktablardagi ta'lim sifatini ta'minlash muammolarini ijobiy hal qilish masalalari bugungi kunning dolzarb masalasi sifatida namoyon bo'lmoqda [1, 360-bet].

Bo'lajak kadrlarni tayyorlash, o'quv-tarbiya jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshirish maqsadga muvofiq: